

---

## TOSHLOQDA MUROJAATLARGA ALOHIDA E'TIBOR QARATILMOQDA

Haftaning har seshanba kuni Toshloq tumani hokimi Abduqahhor Djurabayev tomonidan tumandagi Xalq qabulxonasida o'tkazib kelayotgan fuqarolar qabulida har bir murojaatga diqqat bilan e'tibor qaratib kelinmoqda.

Bugun bo'lib o'tgan qabulda har bir murojaat ortida inson taqdiri, uning muammosi va tashvishlari ijobiy yechim topishiga alohida e'tibor qaratildi.

Qabulda tumandagi barcha korxona va tashkilotlarning mutasaddilari ishtirok etib, har bir muammo joyida bartaraf etildi. Ayrim muddat talab etilgan murojaatlar qat'iy nazoratga olindi.

2023-07-18 13:41:24